

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

Хоразм вилоятида Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев ҳамда вилоят ҳоқими Ж.Раҳимов иштирокида кўмондонлик-штаб ўқув машғулоти ўтказилди.

Мазкур ўқув машқи давомида Хоразм вилояти ҳудудида энергетика ва коммунал соҳа объектларининг 2024-2025 йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, мавсум давомида иссиқлик ва энергетика тармоқларини барқарор ишлашнинг таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштиришга қаратилган амалий ҳаракатлар олиб борилди. Шунингдек, содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ва йирик аварияларнинг олдини олиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар бажарилди. Жараёнда аҳолини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда талафотларнинг олдини олиш, қутқарув ва фуқаро муҳофазаси тузилмаларининг хизмат фаолиятлари синовдан ўтказилди.



## Қўмондонлик-штаб ўқув машғулоти



Машқлар бевосита жойларда, кўргазмалар шаклида ташкил этилиб, тизим ходимларининг билим ва кўникмалари оширилди. Уларни ўтказиш давомида мавсумга пухта тайёргарлик кўриш, авариялар содир бўлганда табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишни ташкил этиш, авария ҳолатларида ҳудудий бошқарув органларининг ҳамкорликдаги ҳаракатларини такомиллаштириш каби вазифаларга алоҳида эътибор қаратилди. Соҳадаги камчиликларни бартараф этиш юзасидан куз-қиш мавсумида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, авария

тиклаш бўлинмаларининг тайёргарлиги ва бошқа зарурий жиҳатларни эътиборга олиш зарурлиги кўрсатиб ўтилди.

Қолаверса, А.Қўлдошев Урганч шаҳридаги Маъмур Академиясида Хоразм вилояти ФВБга бириктирилган юздан ортик ёшлар билан учрашди. Ушбу тадбир давомида соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, уларни мамлакатда амалга оширилаётган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий ислохотларнинг фаол ва бевосита иштирокчиси, жамиятнинг ҳақиқий таянчи ва суянчига айлантириш мамлакатимизнинг устувор ва стратегик вазифаларидан бири



бўлиб келаётгани қайд этилди. Мустақил фикрлайдиган, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат билан қарайдиган, ўзининг қатъий ҳаётий эътиқод ва қарашларига эга бўлган, "ҳалоллик вакцинаси" билан эмланган, миллий менталитетимизга

ёт зарарли таъсирларга қарши туришга қодир ёшларни тарбиялашга қаратилган самарали ишлар хусусида сўз юритилди.

Вазир ёшларнинг берган саволларига жавоб берар экан, Хоразм ёшларининг илғор ва шижоатли эканликлари яна бир бора ишонч ҳосил қилганлигини таъкидлаб ўтди.

Учрашув якунида вазирлик тизимида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда фаол қатнашиб келаётган, теран фикрлаши, билими, юксак интеллектуал салоҳияти билан тенгдошларига ўрناк бўлаётган, қолаверса, ёшлар билан ўтказилаётган жамоат тадбирларида фаол иштирок этиб келаётган бир гуруҳ ёшлар вазир қўлидан ташаккурнома ва эсдалик совғаларини қабул қилиб олдилар.

Дарҳақиқат, шу ўринда таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз туризм салоҳиятини кенг тарғиб этиш, жумладан, қадимий ва навқирон Хоразм вилоятига ташриф буюрувчи хорижий ва маҳаллий сайёҳлар сонини ошириш мақсадида "Қовун сайли" халқаро фестивали ташкил этилади. А.Қўлдошев ушбу тадбир ўтказилган объектга ҳам ташриф буюрди. Юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, байрам тадбирини хавфсиз ўтишини таъминлаш бўйича масъулларга кўрсатмалар берди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ ва Бахтигул ЖУМАНИЯЗОВА тайёрлади.



Қарши ҳарбий прокуратураси ва Ҳарбий авиация институти ҳамкорлигида ёшлар ўртасида турли спорт мусобақалари ташкил этилди.

## ЁШЛАР МАҲОРАТИ ОШИРИЛДИ

Унда ёшлар спортнинг ҳарбийлаштирилган эстафетаси, арқон тортиш, мерганлик, куролни қисмларга ажратиш, югуриш бўйича беллашишди.

Мусобақалар курашларга бой бўлди.

Яқунда ғолибларга кубок, диплом ва эсдалик совғалар топширилди.

Сунгра “Очиқ эшиклар кун” ташкил этилиб, ёшлар Ҳарбий авиация институтида яратилган шароитлар, учиш аппаратлари, музей ва кутубхона билан яқиндан танишди.

**Аброр НАЗАРОВ,**  
Қарши ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

## ЧЕМПИОНАТГА ЯКУН ЯСАЛДИ

Наманган вилоятида ёнғин-қутқарув спорти бўйича “Ўзбекистон Республикаси очик чемпионати” ўтказилди.



“Баркамол авлод” спорт мажмуасида 4 кун давом этган ушбу мусобақада ФВВ ҳудудий бошқармалари ва таркибий тузилмаларидан 19 та эркаклар ҳамда 16 та қизлар терма жамоалар қатнашди. Иштирокчилар ишғол қилиш нарвонида ўқув минорасига кўтарилиш, 100 метрга тўсиқлар оша югуриш, икки кураш, 4x100 метрли ёнғин ўчирувчилар эстафетаси, ёнғин ўчириш автомобилидан жанговар ёйилиш ҳамда кросс-фит турлари бўйича ўзаро беллашдилар. Мусобақа якуний натижаларига кўра, эркаклар терма жамоаси ўртасида, Қашқадарё вилояти терма жамоаси 1-ўринни эгаллаган бўлса, Қорақалпоғистон Республикаси терма жамоаси 2-ўринни ҳамда Бухоро вилояти терма жамоаси эса 3-ўринни қўлга киритди. Қизлар терма жамоаси ўртасида, Қашқадарё вилояти терма жамоаси 1-ўринни эгаллаган бўлса, Тошкент вилояти терма жамоасига 2-ўрин ҳамда Сирдарё вилояти терма жамоасига 3-ўрин насиб этди.

**Қаҳрамон САТТОРОВ,**  
Наманган вилояти  
ФВВ ахборот хизмати раҳбари, капитан.

## БИЛИМЛАР БАҲСИ

Чирчиқ ҳарбий прокуратураси ва Тошкент ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги ҳамкорлигида ҳарбий қисмларнинг бирида «Заковат» интеллектуал ўйини ва турли спорт мусобақалари ўтказилди.

“Бир бўлсак – ягона халқмиз, бирлашсак – Ватанмиз!” шиори остида ўтган беллашувларда маҳаллалар ёшлари қамраб олинди.

Тадбирлар қизиқарли ва сермазмун ўтди.

Натижаларга кўра,

1-ўринни – “Бекобод”;

2-ўринни – “Култөпа”;

3-ўринни – “Муротали” маҳалласи жамоаси эгаллади.

Ғолиблар ва фаол қатнашчилар диплом ва совғалар билан тақдирланди.

**Азиз ЖАМОЛИДДИНОВ,**  
Чирчиқ ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия майори.

## ЎРГАНИШЛАР ДАВОМ ЭТМОҚДА

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Қудратходжаев томонидан Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳрида ўрганишлар олиб борилди.

“Ойдин” маҳалласи еттилик тизими ва ҳуқуқ-тартибот маскани фаолияти ўрганилди.

16-сонли умумтаълим мактаби биносида амалга оширилаётган қурилиш-таъмирлаш ва куз-қиш мавсумига тайёргарлик ишлари билан танишилди.

Шаҳар кўриқлаш бўлимида жамоат тартибини сақлаш, жиноятчиликни жиловлалаш каби қатор масалаларга эътибор берилди.

Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмда ҳудуддаги қурилиш ишларига, хизматни ўташ учун яратилган шароитларга аҳамият қаратилди. Ҳарбий қисм спорт иншоотларига жалб этилган ҳудуддаги маҳалла ёшлари ва ҳарбийларнинг фарзандлари билан дилдан суҳбат қурилди.

Жараёнларда масъулларга тегишли кўрсатмалар берилди.

**Ш.ВАҲОБОВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг ўринбосари,  
адлия подполковниги.

## САМАРАЛИ УЧРАШУВ

Сирдарё вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи, Гулистон ҳарбий прокурори, Ширин шаҳар ҳокимлиги ҳамда ёш ҳарбий хизматчилар, хизматчилар ва уюшмаган ёшлар иштирокида, “Янги Ўзбекистон армияси – мамлакат қудрати, юксак ғурур ва садоқат тимсолидир!” шиори остида тадбир ўтказилди.

Ушбу учрашувда сўзга чиққанлар ўзларининг узоқ йиллик иш тажрибалари билан ўртоқлашиб, энг сўнги ўзгаришлар, яратилган шарт-шароит ва имкониятлар тўғрисида сўз юритдилар.

Шунингдек, ёшларнинг истак ва таклифлари, ташаббуслари қўллаб-қувватланиб, ёшларга бу имкониятлардан оқилона фойдаланиш ҳамда соҳани янада ривожлантириш зарурлиги таъкидланди.

Яқунда бир гуруҳ ҳарбий хизматчиларга бошқарма бошлиғининг “Фахрий ёрлиқлари” топширилди.

Учрашув касб танлаш арафасидаги ёшларга зарур йўналиш берган бўлса, банд бўлмаган ёшларга иш жойларини топишда кўмак бергани, шу билан бирга, кўллаб масалаларга ечим топишганлиги билан самарали бўлди.

**Сардор МАҲМУДЖОНОВ,**  
Сирдарё вилояти ФВВ ахборот хизмати етакчи мутахассиси.  
**Жавлон ТОШПУЛАТОВ,**  
Сирдарё вилояти  
ФВВ бўлим инспектори.

Қашқадарё вилояти ФВВ бошлиғи полковник Ф.Мирзаев томонидан сайёр қабул ўтказилди.

## САЙЁР ҚАБУЛ



Қабулда 30 га яқин ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг тиббий хизмат, пенсия, уй-жой масалалари, оила аъзоларини бандлиги, ёшларни иш билан банд қилиш ва бошқа масалалар билан боғлиқ мурожаатлари масъуллар иштирокида ўрганиб чиқилди.

Қабул давомида, масъуллар тадбиркорларнинг мурожаатлари билан танишдилар. Жараёнда 10 дан ортиқ тадбиркорларнинг объектларида “Фуқаро муҳофазаси”ни ташкил этиш ва “Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш” соҳасида юзага келатган муаммолари тингланди ҳамда уларнинг ижобий ечими хусусида зарур вазифалар белгиланди.

**Қашқадарё вилояти  
ФВВ ахборот хизмати.**

## ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШ

“Қамчиқ” МҚЁҚБда “Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш” мавзусида тадбир ташкил этилди.

Унда коррупция ҳолатлари содир этилишининг олдини олиш, ҳарбий жиноятлар, ҳуқуқбузарликлар, қонун бузилиши ва ҳарбий интизомни мустаҳкамлаш, ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг ҳуқуқий онгини ва ҳуқуқий маданиятини ошириш борасида муҳим фикрлар баён этилди. Ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик, жиноятчиликнинг барвақт олдини олишга қаратилган профилактик ишларни тизимли ташкил этиш, бўш вақтларини мазмунли ўтказишни таъминлашга қаратилган муҳим вазифалар тўғрисида маърузалар қилинди.

**Ш.ҚУДРАТОВ,**  
“Қамчиқ” МҚЁҚБ бошлиғи  
ўринбосари, капитан.



## СЕМИНАР

Фаргона вилояти ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчилари томонидан вилоят миқёсида ўқув семинарлари ўтказилмоқда.

Ушбу тадбирларда аҳолини ёнғин хавфсизлик қоидаларига риоя қилиниши ҳамда зилзиладан олдин, зилзила вақтида ва зилзиладан кейин бажариладиган ишлар юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Буклетлар тарқатилиб, видеороликлар қўйилмоқда. Семинарлар савол-жавоб ва қизгин мулоқотларга бой тарзда ўтмоқда.

**А. АЛИЖОНОВ,**  
Фаргона вилояти ФВБ ахборот хизмати раҳбари, капитан.



## МЕТРОПОЛИТЕН БЕКАТЛАРИДА...

Тошкент шаҳар ФВБ ва унинг таркибий тузилмалари ҳарбий хизматчилари томонидан 2024 йил давомида “Тошкент Метрополитени” ер ости ва ер усти бекатларида ёнғин ўчириш амалий-тактик машқлари ўтказилди.

Хусусан, “Минор” бекатида ташкил этилган машғулот давомида ишчи хизматчилар фавқулодда вазият рўй берганда ва ёнғин келиб чиққанда уни бартараф этиш, фуқароларни эвакуация қилиш, жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш машқларини бажардилар. Фавқулодда вазият ва ёнғин юз берганда бекатдаги фуқароларни ташқарига йўналтириш ва олиб чиқиш ишлари амалга оширилди.

**Ҳ.ВАЛИЕВ,**  
“Метрополитен”да ЁХТБ  
кичик инспектори, катта сержант.  
**Ж.АБДУРАИМОВ,**  
кичик инспектор, катта сержант.

## ТАШВИҚОТ

“ЛУОК” МЧЖ ОЁХТТЕ Маркази Бухоро вилоятидаги ОЁХТТЕ бўлими ходимлари томонидан “ЛУОК” МЧЖ нинг барча объектлари ҳамда вилоятнинг 4-сектор ҳудудидаги қатор маҳаллаларда режа асосида ўрганишлар ҳамда тарғибот ва ташвиқот тадбирлари олиб борилмоқда.

**Х.ҚИЛИЧЕВ,**  
“ЛУОК” МЧЖ ОЁХТТЭМ Бухоро  
вилоятидаги ОЁХТТЭ бўлим бошлиғи  
ўринбосари, подполковник.

## ҲАМКОРЛИКДА

Тошлоқ туманидаги Марказий ўйингоҳда техникалар саф кўриги ҳамда махсус-тактик ўқув машқи ташкил этилди. Содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш мақсадида тегишли ташкилотлар билан ҳамкорликда ўтказилган машғулотда 10 та махсус техника ҳамда 58 нафар ишчи хизматчилар ва фуқаролар иштирок этди.

**А. АЛИЖОНОВ,**  
Фаргона вилояти  
ФВБ ахборот хизмати раҳбари, капитан.

## РАҲБАР ВА ЁШЛАР

Қашқадарё вилояти ФВБ томонидан Шаҳрисабз шаҳар ФВБ бўлими ёш ҳарбий хизматчилари ҳамда шаҳардаги 2-секторга бириктирилган ёшлар иштирокида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.

Унда вилоят ФВБ раҳбари полковник Фарҳод Мирзаев томонидан ватанпарварлик авлоддан-авлодга мерос бўлиб ўтаётган қадрият эканлиги, ҳар бир инсон ўз она заминининг манфаатлари йўлида фидойий бўлиши, юксак олий неъмат эканлиги, Ватан ҳимоячиси, ҳарбий бўлишнинг шарафи ва масъулияти ҳақида муҳим фикрлар баён қилинди.

Соҳа вакиллари қутқарувчи касбининг машаққатлари ва унинг нуфузини оширишга оид мулоҳазаларини билдириб, ёшларнинг қизиқтирган барча саволларига жавоб бердилар.

Тадбир сўнггида, ёшлар учун ёнғин-қутқарув техникалари ва зарур асбоб-анжомлар намоиши бўлиб ўтди. Ёшлар иштирокида шартли ёнғинларни бартараф этиш ҳаракати ва бирламчи ёнғин ўчириш воситаларидан фойдаланиш тартиблари ҳам амалда бажарилди.

**Қашқадарё вилояти  
ФВБ ахборот хизмати.**

## КЕКСАЛАР ЭЪЗОЗДА

Қашқадарё вилояти ОЁХТТЕБ ҳарбий хизматчилари томонидан Шаҳрисабз тумани “Қутчи” МФЙда яшовчи Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Саъдулла Жабборовнинг ҳолидан хабар олинди. 1920 йилда таваллуд топган отахон билан учрашув давомида юрт озодлиги учун кечган жанглари, урушдан кейинги қизгин меҳнат фаолияти тўғрисида суҳбат қурилди. Отахон бугунги дорилмомон кунларнинг қадрига етинг, энди ҳеч қачон уруш бўлмасин, дея дуо қилди. Кенг жамоатчилик қатнашган хайрли йўқлов ҳақиқий байрамга айланиб, нуруний отахонга иззат-иқром кўрсатилди.

Таъкидлаш жоизки, “Бир бўлсак – ягона халқимиз, бирлашсак – Ватанмиз!” деган бош ғояни ўзида мужассам этган мана шундай тадбирлар азал-азалдан халқимизга хос бўлган меҳр-муруват ва саховат фазилатлари намунасидир.

**С.ХАМИДОВ,**  
“ЛУОК” МЧЖ ОЁХТТЕБ  
П ва НБ инспектори, капитан.

“Самарқанд Иккиламчи қора металл” филиалида ўқув машқи ўтказилди.

## ЎҚУВ МАШҚИ

Дастлаб саф кўриги ўтказилди. Ўқув машқи раҳбари тегишли хизматлар куч-воситалари ва корхона ФМ тузилмалари сардорларининг ўқув машқига тайёргарлиги бўйича маълумотларни қабул қилди.

Шунингдек, разведка, авария-қидирув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган тадбирлар, зарарланиш зонасини чегаралаш, жабрланган ходимни зарарланиш зонасидан олиб чиқиш, биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш, тиббий муассасага юбориш тадбирлари бажарилди. Шундан сўнг, санкцияланмаган ионлаштирувчи нурланиш манбасини қидириб топиш ва радиациявий аварияни бартараф этиш жараёни амалда бажарилди. Машқи якунида ҳисоботлар тингланди, хато ва камчиликлар муҳокама қилинди.

**Самарқанд вилояти ФВБ  
ахборот хизмати.**

## “КАРКИДОН”ДА РЕЙД

Фаргона вилояти ФВБ ходимлари томонидан тегишли ташкилотлар билан биргаликда Қува туманидаги “Каркидон” сув омборида профилактик рейд тадбирлари амалга оширилди.

Тадбирлар давомида рухсат этилмаган жойларда чўмилаётган фуқаролар билан профилактик тушунтиришлар олиб борилди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 августдаги “Кичик ҳажмли кемалардан хавфсиз фойдаланишни таъминлаш чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори талабларига амал қилмасдан фойдаланиб келинаётган кичик ҳажмли кема эгаларига нисбатан маъмурий баённома расмийлаштирилди.

**А.АЛИЖОНОВ,**  
Фаргона вилояти ФВБ  
ахборот хизмати раҳбари, капитан.

Янгиқўрғон тумани ФВ бўлими ходимлари томонидан тумандаги 1-мактабгача таълим муассасасида кўргазмали семинар ташкил этилди. Болажонларга ёнғин, чақнаш, исгаздан заҳарланиш ва бошқа фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда содир бўлганда тўғри ҳаракатланиш борасида кенг тушунчалар берилди.

## БОЛАЖОНЛАРГА САБОҚ

Шунингдек, тадбирда ёнғин ўчириш автомашиналари ва техникалар имкониятлари намоиш этилиб, уларнинг фаолияти ҳақида батафсил маълумот берилди. Иштирокчиларга бирламчи ёнғин ўчириш воситаларидан тўғри фойдаланиш амалда кўрсатилди.

**М.ЭРГАШЕВ,**  
Янгиқўрғон тумани ФВ бўлими катта  
инспектори, капитан.  
**Ж.ИСМОНЖОНОВ,**  
бўлим кичик инспектори, оддий аскар.

## МУҲИМ КЎРСАТМА

Тўрткўл тумани ҳокими ўринбосари А.Ғаниев раислигида “Долзарб 30 кун” тадбирининг якуни бўйича йиғилиш ўтказилди.

Унда туман ФВ бўлими бошлиғи подполковник А.Жумашов ҳамда корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг ҳисоботлари тингланиб, тегишли тартибда топшириқ ва кўрсатмалар берилди.

**С.САПАЕВ,**  
Тўрткўл тумани ФВ бўлими П ва НБ катта  
инспектори, капитан.

## ТАРҒИБОТ

Ёнғин қаерда бўлмасин, ўзининг мудҳуш изларини қолдиради. Қанча одамлар бошпанасиз қолади, айрим ҳолларда эса киши ҳаётдан бевақт кўз юмади. Тегишли хизматлар билан ҳамкорликда аҳоли яшаш хонадонларида уйма-уй юриб профилактик тадбирлар ўтказилмоқда.


Фуқароларга электр ва газ ускуналарида фойдаланишда уларнинг созликка аҳамият қаратиш зарурлиги таъкидланмоқда. Совитиш кондиционерлари ва бошқа маиший электр жиҳозлардан фойдаланишда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига қатъий амал қилиш кераклиги тушунтирилмоқда. Ёнғин-қутқарув қисмлари шахсий таркиби томонидан фавқулодда вазият ёки ёнғин содир бўлганда тўғри ҳаракатланиш тартиби ва қутқарув ишларини ташкил этиш бўйича ёнғин ўчириш амалий тактик машқи ва одамлар оммавий йиғиладиган масканларда ёнғин қутқарув техникалари ҳамда воситалари намоиш этилмоқда.

**Д.МИРАЛИМОВ,**  
Тошкент шаҳар ФВБ ОЁХТТЕБ кичик  
инспектори, катта сержант.

## CHIGIRTKALARGA QARSHI KURASH

O'zbekistonda 250 dan ortiq chigirtka turlari uchraydi. Ularning o'ndan ziyod turi zararkunanda sifatida qayd qilingan. Chigirtkalar o'simlikxo'r hasharot hisoblanadi. Tabiatda bir dona chigirtka tanasining katta kichikligiga qarab bir kunda 90 mg dan 280 mg gacha o'simlik massasi bilan oziqlanadi. Osiyo chigirtkasining yakka holdagi xili Surxondaryo viloyatining Amudaryo bo'yidagi qamishzorlarda uchraydi. Qamishlardan tashqari, g'o'za, bug'doy, arpa, makkajo'xori, oq jo'xori, tariq, ayrim hollarda esa daraxtlar novdalari va barglari bilan oziqlanadi. Italiya yoki voha chigirtkasi O'zbekistonning tog'li hududlarida bug'doy va turli o'simliklar o'sadigan joylarda keng tarqalgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonning hamma sug'oriladigan yerlarida qishloq xo'jalik ekin maydonlari yaqinida ham uchraydi. Marokash chigirtkasi ko'zchalarda tuxum holatida qishlaydi. O'zbekiston sharoitida mart oyining o'rtalari va aprel oyining boshlarida tuxumdan lichinkalar chiqa boshlaydi. Qulay ob-havo sharoitlarida lichinkalar 3-6 kun davomida



to'liq tuxumdan chiqib bo'lishadi. Qulay ob-havo sharoiti ko'plab zararkunandalarning tuxumlari va lichinkalarining omon qolishi va pishib yetilishiga, ularning sonining tez ko'payishiga yordam beradi. Bu esa o'simliklarning zararkunandalarga qarshi kurash muammosini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shuning uchun FVV va uning hududiy tuzilmalari, "O'zagrokimyohimoya" AJ, "O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti" MCHJ hamkorlikda chigirtkalariga qarshi kurash olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu ishlar natijasi mamlakatimiz mintaqasida ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning samaradorligini va iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlaydi.

A.MAHMUDOV,  
FMI katta o'qituvchisi.

Yangi binolarda yong'inni aniqlash va ogohlantirish tizimlari, masalan, tutun va issiqlik sensorlari, avtomatik yong'in signalizatsiya tizimlari o'rnatilishi kerak. Yong'in xavfsizligi tizimlarining to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun muntazam texnik xizmat ko'rsatish va sinovdan o'tkazish zarur. Xonadon egalari yong'in sodir bo'lganda qanday harakat qilishni bilishlari kerak, shuning uchun ular evakuatsiya rejalarini o'rganishlari va qochish yo'llari qayerda joylashganligini oldindan bilishlari shart.

## TAVSIYA

Bu esa o'z navbatida, aholini xavfsizligini oshirish imkonini beradi. Tashkil etilayotgan suhbatlar davomida qurilish ishlarini boshlash hamda loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirishini ta'minlash bo'yicha takliflar bildirilmoqda.

M.KOMILOVA,  
Toshkent shahar FVB OYXTTEB  
inspektori, kapitan.



## KORGAZMALI TADBIR

Toshkent shahar FVB O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati Hukumat uyidan foydalanish boshqarmasida va Xo'jalik faoliyati boshqarmasining Avtoxo'jaligi binolarida YXTTEB tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosida ko'rgazmali seminar tashkil qilindi.

Unda ishchi-xizmatchilar va Milliy Gvardiya harbiy xizmatchilariga yong'inlar hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirilib, yong'in-qutqaruv texnikalari namoyish etildi. Shuningdek, yong'in sodir bo'lgan vaqtda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish tartibi amalda ko'rsatib berildi.

D.AHMADJONOV,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir  
kotibiyati Hukumat uyidan foydalanish  
boshqarmasida va Xo'jalik faoliyati  
boshqarmasining Avtoxo'jaligi binolarida  
YXTTEB kichik inspektori, oddiy askar.  
J.EGAMNAZAROV,  
kichik inspektor, oddiy askar.

## OROMGOHLARDA PROFILAKTIKA

Xorazm viloyati FVB tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish oyligi yuzasidan Yangiariq tumaidagi bolalar yozgi dam olish oromgohlarida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Mazkur targ'ibot tadbirining maqsadi va mazmun-mohiyati haqida ishtirokchilarga batafsil ma'lumot berilib, yong'in kelib chiqishiga sabab bo'luvchi holatlar tushuntirildi.

M.KURBANOV,  
Xorazm viloyati FVB bo'lim  
bosh inspektori, kapitan.

## HARBIYLIK – ULUG' KASB

Agar odam biror kasbga astoydil mehr qo'yib, uning sirasrorlarini erinmay puxta o'rgansa, uni shu kasbi el-yurt orasida obro'yini yuksaltiradi. Tashabbuskorligi, kamtarinligi va fidoyiligi bilan yurt koriga yaragan, vatanparvar kishilar ko'p. Ana shunlardan biri FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi podpolkovnik Odiljon To'laganovdir.



Bu inson o'zining odamiyligi, keng dunyoqarashi, vazifasiga mas'uliyati, umuman, har qanday vaziyatda o'z yordamini aymasligi bilan jamoada hurmat topgan. U o'z sohasining bilimdoni, tajribali mutaxassis. Sport bilan shug'ullanish uning eng sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Fidoyi, ko'ngli toza, yuksak insoniy fazilatlar sohibidir.

– Har bir yigit kishining bolaligidan harbiy bo'lish orzusi bo'ladi, – deydi suhbatdoshimiz. – Mening ushbu sohaga intilishimda ota-onamning yordami juda katta bo'lgan. FVV Akademiyasini tamomlab, mutaxassisligim bo'yicha shu yerning o'zida ishga qoldim. Bunda Nig'matulla Mansurxo'jayev, Ulug'bek Yoqubov, Baxtiyor Mavlonkarimov kabi ustozlarimning hissasi beqiyos bo'lgan. Bularning e'tirof etish men uchun sharafidir. Aynan ustozlarimiz tomonidan berilgan bilimlar tufayli yaxshi yutuqlarni qo'lga kiritaymiz.

Darvoqe, shu o'rinda qayd etish joizki, keyingi yillar-

da mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning bilim va mahoratini yuksaltirish, shaxsiy tarkibning harbiy-jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning oilalarini ijtimoiy muhofaza qilish, zobit va xizmatchilarning moddiy ta'minoti va uy-joy sharoitlarini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlarda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg'ularini shakllantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Boisi, amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayoni, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirilishida Odiljon To'laganov ham o'z hissasini qo'shmoqda. Kursantlarning bilim va salohiyatlarini yanada oshirish yo'lida dars jarayonlarida turli xil interaktiv usullar

va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanib keladi. Shular orqali kursantlarning turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishlari, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishi, amaliyotda to'g'ri qo'llay olishlariga o'rgatadi. Mavzular yuzasidan bo'lib o'tgan munozaralar kursantlarning bilim va salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Aslida shunday ham bo'lishi kerak. Chunki ertangi kunimizni yoshlarning salohiyati, irodasi, harakati hamda Vatanga bo'lgan muhabbati, sadoqati belgilaydi. Yoshlarni o'qitish, bilim, ko'nikmalarini oshirish, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan iqtidorli, intiluvchan, tashabbuskorlarni tarbiyalash, qo'llab-quvvatlash kutilgan natijalarni ko'rsatmoqda.

O.To'laganov yong'in xabarlash tizimlari va avtomatik yong'in o'chirish qurilmalarining tuzilishi ularning tartibiy qismlari, ularning ishchanligini tekshirish hamda ularda vujudga kelgan nosozliklarni bartaraf etish borasida kursantlarning bilim darajasini oshirishga intilmoqda. Chunki bunday texnik vositalarning ishonchiligi, uzoq muddat xizmat ko'rsatishi, shuningdek, bino va inshootlarni to'liq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining samaradorligi ularni malakali ishlatishga bog'liqdir.

– Bugungi kunda hayotga izchilik bilan tatbiq etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim olishi, o'sib-ulg'ayishi, o'z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi Odiljon To'laganov. – Xususan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bo'lgan, "halollik vaksinasi" bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

R.ROZABOYEVA,  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.

## UCHRASHUV

Shahrisabz shahar FV bo'limi yosh harbiy xizmatchilari hamda shahardagi 2-sektorga birlashtirilgan yoshlar ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Tadbirda viloyat FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev ishtirok etib, yoshlarga mashaqqatli va shu bilan birga sharaflari xizmat faoliyati mobaynida bosib o'tgan yo'llari va erishgan yutuqlari to'g'risida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar, sohaning sir-asrorlari xususida suhbat olib borildi. Qolaversa, yoshlar ishtirokida shartli yong'inlarni bartaraf etish harakati va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari ham amalda bajarildi.

O.HAKIMOV,  
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i  
o'rinbosari, podpolkovnik.

## DOVONDA...

"Qamchiq" MQYOQB mas'ul xodimlari va harbiy xizmatchilari, shuningdek, Ohangaron va Pop ixtisoslashtirilgan Davlat o'rmon xo'jaliklarining mutasaddi rahbar xodimlari tomonidan o'rmonlardagi yong'in xavfsizligi holati o'rganib chiqilmoqda.

O'rganish davomida o'rmon xo'jaliklarida aniqlangan 87 ta kamchiliklar bartaraf etildi. 407 nafar fuqarolar bilan yong'in xavfsizligini ta'minlash va oldini olish yuzasidan profilaktik suhbatlar o'tkazilib, tushuntirishlar berildi, 187 ta eslatma materiallari tarqatildi, shuningdek, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzgan 17 nafar fuqaroga ogohlantirish xatlari berildi.

Sh.ABDULLAYEV,  
"Qamchiq" MQYOQB boshlig'ining  
o'rinbosari, podpolkovnik.

## O'QUV MASHQI

To'rtko'l tumani hududidagi "Taxiatosh Neftbazasi" MCHJ To'rtko'l filialida "Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

Mazkur mashg'ulot davomida obyekt hududida neft mahsulotlarini tashuvchi avtomobillarda sodir bo'lgan yong'in tuman FV bo'limi va hamkorlikdagi tashkilotlar tomonidan bartaraf etish bo'yicha harakatlari bajarildi. Zilzila vaqtida ob'yektdagi vayronalar ostida qolgan fuqarolarni qutqarish, havfsiz hududlarga evakuatsiya qilishdagi harakatlari va ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini qutqaruv tuzilmasi va tibbiy yordam ko'rsatish xizmati xodimlari bilan hamkorlikda harakatlari namoyish etildi.

A.DAVLETNAZAROV,  
To'rtko'l tumani FV bo'limi P va NB  
kichik inspektori, kichik serjant.

## REYD TADBIRLARI

Nazoratsiz qolgan ayrim bolalar "cho'milish taqiqlangan" loyqa, ifloslangan hamda chiqindilar ko'p oqadigan suv o'zamlarida cho'milishlari kuzatilmoqda. Buning natijasida bolalarning cho'kish holatlari uchramoqda.

Shu bois, Qamashi tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududidan oqib o'tadigan Qashqadaryo

daryosi hamda Paxtaobod kanallarida baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida reyd tadbirlari amalga oshirilmoqda.

O.HUSHVAQOV,  
Qamashi tumani FV bo'limi  
bo'linima boshlig'i, kapitan.  
U.RAHMONOV,  
bo'lim katta inspektori,  
katta leytenant.



## AHOLIGA XIZMAT

Yangiyahoy tumani FV bo'limi boshlig'i boshchiligidagi 16 ta boshqaruv servis kompaniya xodimlarining aholini uzluksiz xizmat ko'rsatish ta'minlashga tayyorgarligi o'rganildi. Kamchiliklar bo'yicha Boshqaruv servis kompaniya rahbarlariga topshiriqlar berildi.

S.SAGDULLAYEV,  
Yangiyahoy tumani FV bo'limi bo'linma  
boshlig'i, mayor.

## DAVRA SUHBATI

Andijon viloyati "Yoshlar markazida" viloyatda bir guruh volontyorlar bilan davra suhbatlari o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasiga zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada oshirish, kuchli zilzilalarni prognoz qilishning yangi usullarini ishlab chiqish, ularga tayyorgarlik ko'rishning zamonaviy tizimini yaratish yuzasidan fikrlar bayon etildi.

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda volontyorlar tomonidan bajariladigan ishlar to'g'risida batafsil tushunchalar berib o'tildi.

Shuningdek, viloyat FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan fuqaro muhofazasi yo'nalishida 24 soatlik dastur asosida tayyorgarlikdan o'tkazish rejalashtirildi.

N.DADABOYEVA,  
Andijon viloyati FVB HFXO'M o'qituvchisi.



## MAVSUMGA HOZIRLIK

Buxoro viloyati Vobkent tumanida 2024-2025 yillar kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha tuman boshqaruv organlari, FVDT xizmatlarining shayligini ta'minlash maqsadida saf ko'rigi o'tkazildi. Tadbirda elektr va gaz tizimi ta'minotida tejamkorlikni yo'lga qo'yish, tuman hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar, is gazidan zaharlanish, botulizm va boshqa xavfli vaziyatlarning oldini olish, aholi orasida targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

O.MIRZAYEV,  
Buxoro viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik

## TAVSIYALAR BERILDI

Samarqand viloyati FVB va uning shahar, tuman bo'limi xodimlari "Dehqon" MCHJ va "Samkat oazis durdonasi" MCHJga qarashli bozorlarda bo'lib, tadbirkorlar, sotuvchi va xaridorlarga yong'inni keltirib chiqaruvchi xolatlardan ehtiyot bo'lishlari, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmasliklarini aytishdi.

Yong'in-qutqaruv avtomobillarining erkin harakatlanishi holati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklar, qoida buzilish holatlari

bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, "Turon poletilin plast" MCHJ ishchi xodimlariga yong'inlarning oldini olish, sodir bo'lganda uni bartaraf etish, yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish usullari borasida tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

M.RAHMONQULOV,  
Kattaqurg'on shahar FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## AMALDA KO'RSATILDI

Davlatobod tumanidagi "ELOBOD CITY" majmuasida hamkor xizmatlar bilan birgalikda yong'inlarni o'chirish va fuqarolarni qutqarish bo'yicha amaliy-taktik mashq o'tkazildi.

Shartli ravishda binoning to'qqizinchi qavatida yuzaga kelgan yong'inni bartaraf etishda favqulodda vaziyatlar bo'limlari hodimlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlari amalda ko'rsatildi.

I.MELIBOYEV,  
Namangan viloyati FVB axborot  
xizmati yetakchi mutaxassisi.  
A.ABDULLAYEV,  
Davlatobod tumani FV bo'limi  
boshlig'i, podpolkovnik.



## BELLASHUV

Markaziy kon boshqarmasi Zarafshon OYOXTTEB tasarrufidagi yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi o'rtasida kasbiy, xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish hamda ularning amaliy-taktik darajasini aniqlash maqsadida, joylarda xizmat olib borayotgan qism boshliqlari, smena boshliqlari hamda qutqaruvchilar o'rtasida "A'llochi xodim" ko'rik-tanlovining 1-bosqichi o'tkazildi.

Sinovlar yakuni bo'yicha qism boshliqlari o'rtasida 1-o'rin 2-yong'in-qutqaruv qism boshlig'i mayor Ilyos Mahmudovga, 2-o'rin 5-yong'in-qutqaruv qism boshlig'i mayor Nurmamat Ochilovga, 3-o'rin 11-yong'in-qutqaruv qism boshlig'i mayor Kamoliddin Nazarovga nasib etdi.

Smena boshliqlari o'rtasida 1-o'rinni 2-yong'in-qutqaruv qism smena boshlig'i kapitan Ma'ruf Mamatov egallagan bo'lsa, 2-o'ringa 3-yong'in-qutqaruv qism smena boshlig'i katta leytenant Jo'rabek Aminov munosib ko'rildi. 3-o'rin esa 11-yong'in-qutqaruv qism smena boshlig'i leytenant Durbek Hayitovga nasib etdi.

Qutqaruvchilar o'rtasida kechgan bahslarda 1-o'rinni 3-yong'in-qutqaruv qism qutqaruvchisi Zulfiqor Saidmurodov, 2-o'rinni 4-yong'in-qutqaruv qism qutqaruvchisi Islom Qosimov, 3-o'rinni 2-yong'in-qutqaruv qism qutqaruvchisi Obid Ochilov qo'lga kiritdi.

O'.ISLOMOV,  
"Markaz" KBOYXTTEB  
boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## O'RGANISHLAR DAVOM ETMOQDA

Namangan viloyati Norin tumani hududida shu kunga qadar 38 ta ko'p qavatli uylarda va 4370 ta hovli uylarda o'rganish ishlari olib borildi. O'rganish davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha fuqarolarga tushunchalar berildi. Shuningdek, tuman hududidagi 14 ta avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida, 1 ta bolalar dam olish maskanida, 20 ta davlat tasarrufidagi obyektlarda o'rganish ishlari olib borildi. O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha maskan rahbarlariga ko'rsatmalar berildi.

**I.TO'XTABOYEV,**  
Norin tumani FV bo'limi P va NB  
inspektori, katta serjant.  
**R.SOLIYEV,**  
bo'lim bo'linma inspektori, katta  
serjant.

## TARG'IBOT

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati Hukumat uyidan foydalanish boshqarmasida va Xo'jalik faoliyati boshqarmasining Avtoxo'jaligi obyektlarida YXTTEB xodimlari tomonidan yong'inlar hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda.



Mana shunday targ'ibot ishlaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik Institutida o'tkazildi. Institut ilmiy va texnik xodimlari bilan yong'inlar hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazildi.

**D.AHMADJONOV,**  
Bosh vazir kotibiyati Hukumat uyidan  
foydalanish boshqarmasida va  
Xo'jalik faoliyati boshqarmasining  
Avtoxo'jaligi binolarida YXTTEB  
kichik inspektori, oddiy askar.

## MUSOBAQA

Qashqadaryo viloyati FVB "Shurtan GKM" MCHJ OYXTTEB xodimlari tomonidan ishchi-xizmatchilar o'rtasida "Eng yaxshi ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi" musobaqasi o'tkazildi. Tadbirda faol qatnashganlar tashakkurnoma hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**SH. XURRAMOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
"Shurtan GKM" MCHJ OYXTTEB  
P va NB inspektori,  
katta leytenant.  
**B. KARIMBERDIYEV,**  
"Shurtan GKM" MCHJ OYXTTEB  
P va NB inspektori, katta leytenant.



## MUHIM TAVSIYALAR

Qamashi tumanida soha xodimlari tomonidan targ'ibot profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Xonadonlarda aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etilib, fuqarolarga yong'in bilan bog'liq noxushliklarning oldini olishga oid muhim tavsiyalar berildi.

Ko'p xonadonli aholi yashash turar joylari va don qabul qilish maskanida o'tkazilgan yong'in o'chirish amaliy mashg'uloti har tomonlama samarali bo'ldi. Amaliy mashg'ulot davomida fuqarolarni turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Ro'y berishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning bu boradagi tayyorgarligi tekshirilib, avariya va uning oqibatida ro'y bergan yong'in oqibatlarini bartaraf etishdagi harakatlari amalga bajarildi.

Ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, jabrlanuvchini qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish tartibi amalga ko'rsatilib, qutqaruv xizmatlarining hamkorlikdagi ko'nikmalari mustahkamlandi.

**E.ISMOILOV,**  
Qamashi tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

## OYLIK DOIRASIDA

Xorazm viloyati FVB xodimlari tomonidan "Assalom Xorazm" teleko'rsatuvida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbiri hamda suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish borasida ma'lumot berildi.

Shuningdek, Xorazm radiosining "Vaziyat" eshittirishi orqali tadbir doirasida radiosuhbat tashkil etilib, soha xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, sodir bo'lgan yong'inlar va ularning oqibatlari, tadbirkorlik subyektlari hamda qurilish obyektlarida yong'inlarning oldini olish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

**M.KURBANOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

## TUSHUNCHALAR BERILDI



Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB boshlig'i o'rinbosari polkovnik M.Seydullayev To'rtko'l tumanida bo'lib, bo'lim shaxsiy tarkibi va hamkorlikdagi tashkilotlarining ertalabki yo'riqnoma tarqatuviga qatnashdi. Tadbir ishtirokchilariga tushuntirish ishlari olib bordi. "To'rtko'l el rizqi" MCHJ dehqon bozori hududida mavjud savdo do'konlari elektr tarmoqlari, tabiiy gazdan foydalanish holatlari, yong'inga qarshi suv hovuzining texnik xolati, shuningdek, bozor hududida yong'in o'chirish avtomobillari uchun ajratilgan yo'laklarning holati bilan tanishdi. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha mutasaddi idora va tuman hokimligi vakillariga tegishli tartibda topshiriqlar

berdi. So'ng "Oq kabutar" yozgi bolalar dam olish oromgohida bo'lib, u yerda dam oluvchilar uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi ko'zdan kechirdi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan oromgoh ishchi va xizmatchilariga tushuntirishlar berdi.

Tadbir so'nggida tuman hokimligi binosida tegishli soha vakillari ishtirokida aniqlangan kamchiliklar va uzoq vaqtdan buyon yechimini topmayotgan muammolar va ularni bartaraf qilishga qaratilgan vazifalar muhokama qilindi.

**A.JUMASHOV,**  
To'rtko'l tumani FV bo'limi  
boshlig'i, podpolkovnik.

## QURILISHDA OBYEKTLARIDA

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida mutaxassislar tomonidan qurilish ishlari davrida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan yong'inga qarshi tadbirlarni to'liq bajarilishi va davlat ekspertizasidan o'tkazilishi, maskanlarni foydalanishga qabul qilish jarayonlari o'rganildi.



Shuningdek, mas'ullar tomonidan qurilish inshootlarida olib borilayotgan qurilish va montaj ishlari bilan yaqindan tanishish jarayonida quruvchi va mas'ullarga xavfsizlik qoidalariga amal qilish, yong'inga qarshi tadbirlarni me'yoriy hujjatlar asosida tashkil qilish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

**A.BOLTAYEV,**  
Kitob tumani FV bo'limi boshlig'i,  
kapitan.  
**H.XO'JAKELDIYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bosh  
inspektori, leytenant.



## TADBIRLAR

Shahrisabz shahridagi "Oq saroy" TEKSTIL mas'uliyati cheklangan jamiyatining ishchi-xizmatchilari o'rtasida profilaktik targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bu borada ishchi-xizmatchilarning bilimlarini oshirish muhimligi bois, mutaxassislar korxonada ishchilari o'rtasida yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish qoidalarini, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari bo'yicha zarur tushuncha va yo'riqnoma berildi. Ogohlikka chorlovchi eslatma va bukletlar tarqatildi.

Shuningdek, G'uzor tumanidagi "Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi" obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi tomonidan obyekt ishchi-xizmatchilari o'rtasida yong'in xavfsizligini ta'minlashga doir o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari ham juda samarali bo'ldi.

**M.NIGMATOV,**  
Shahrisabz shahar "Oq saroy"  
TEKSTIL MCHJ OYXTTE bo'linmasi  
boshlig'i, podpolkovnik.  
**D.QAYUMOV,**  
"Sho'rtan NGQChB" OYXTTEB  
boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

# ИЖТИМОЙ ФАОЛИЯТ – ИНСОН ВА ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ОМИЛИ

**Бугун жаҳонда мафкуравий жараёнларнинг глобаллашуви жуда катта тезлик билан кучайиб бормоқда. Бу жараён, ўз навбатида, одамларга ғоявий ва маънавий таъсир ўтказиш имкониятларини ҳаддан ташқари кенгайтириб юборди. Ер юзининг барча минтақаларида мафкуравий кураш аллақачон умумбашарий миқёс касб этган.**

Инсоннинг ижтимоий борлиқдаги ўрнини англашга, ижтимоий фаолиятининг моҳияти ва хусусиятларини очиб беришга бўлган интилиш мудом илм аҳлининг диққат марказида бўлиб келган. Файласуфлар ушбу муаммони турлича тапкин қилиб келдилар.

Фалсафа тарихида эътиборли изланишлар олиб бориб из қолдирган барча илм аҳли инсоннинг ижтимоий борлиқдаги ўрнини аниқлашга оид у ёки бу ғояни, концепцияни яратишга, ёйишга интилган. Ижтимоий фаолликнинг моҳиятини англаш учун инсон ушбу фаолиятни нима учун ва қандай амалга оширади, унинг негизда нималар ётади, деган саволларга жавоб бериш зарур.

Ижтимоий фаоллик дунёни такомиллаштиришга қаратилган инсоннинг хатти-ҳаракатларидир, дейиш фалсафий нуқтаи назардан берилган жавобдир. Инсон ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий изланишларнинг ҳам объектидир. Ижтимоий фаолиятнинг энг ёрқин кўриниши кишининг ижтимоий ишлаб чиқариш жараёнларида қатнашишидир. Ушбу жараёнлар нафақат ҳаёт, тириклик учун зарур маҳсулотларни яратди, худди шунингдек, ижтимоий фаоллик турларини ҳам ривожлантирди. Натижада инсон ўз ҳаётини, умрини ишлаб чиқариш жараёнларида шаклланди ва кечадиган фаолият турлари билан боғлайдиган, меҳнатга ақлий ва жисмоний камолот воситаси сифатида қарайдиган бўлди.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ижтимоий фаолият инсон ва жамият тараққиётининг шarti, атрибутига айланган экан у генезиси ва моҳиятига мувофиқ инсон ва жамият билан мудом бирга бўлиб келган. Илмий-фалсафий адабиётларда бу ўринда ишлаб чиқариш жараёнлари ва упарда содир бўладиган кишипараро муносабатлар, мулоқотлар тилга олинади. Ҳақиқатан ҳам ижтимоий фаолиятнинг энг ёрқин кўриниши кишининг ижтимоий ишлаб чиқариш жараёнларида қатнашишидир. Ушбу жараёнлар нафақат ҳаёт, тириклик учун зарур маҳсулотларни яратди, худди шунингдек, ижтимоий фаоллик турларини ҳам ривожлантирди. Нати-

жада инсон ўз ҳаётини, умрини ишлаб чиқариш жараёнларида шаклланди ва кечадиган фаолият турлари билан боғлайдиган, меҳнатга ақлий ва жисмоний камолот воситаси сифатида қарайдиган бўлди. Ижтимоий фаолиятнинг иккинчи функционал хусусияти шундаки, ижтимоий фаолият инсонга ўзининг моддий эҳтиёжларини қондириш, маълум бир урбанизацион қулайликларни яратиш имконини беради. “Ҳаётни асраш инстинкти” принцигига мувофиқ ижтимоий фаоллик инсонни ўзини тур сифатида асраб қолиш, бунинг учун эса энг муҳим нарсаларни, маҳсулотларни яратишни, ишлаб чиқишни шарт қилиб қўяди. Ҳатто ибтидоий одам кашф этган таёқ, яъни таёқ ёрдамида дарахт мевасини уриб тушириши ҳам, замонавий одамнинг компьютер, робот, “механик одам”ни яратгани ҳам аслида ижтимоий, иқтисодий ва интеллектуал эҳтиёжларини қондириш усулидир.

Дарҳақиқат, ҳозирги инсон онги, ҳиссиётлари учун кураш тобора кучайиб бораётган бир пайтда маънавий, мафкуравий, ғоявий таҳдид ва хуружлар жамиятимизнинг ижтимоий-маънавий ҳаётига таъсир ўтказишнинг кучли қуроли, хавф-хатарлар манбаига айланиб қолмоқда. Бугунги дунёнинг шиддат билан ривожланиши, миллий ва умуминсоний қадриятлар трансформацияси, инсон, унинг онги, тафаккури, айниқса, қалби учун тобора кучайиб бораётган ғоявий-мафкуравий курашлар ахлоқ феномени аҳамиятини башариёт учун нечоғли зарур эканини исботлаб қўймоқда.

Лекин шу ўринда айтиш жоизки, ўзбек халқи ижтимоий-маданий ҳаёти тарихига эътибор берадиган бўлсак, унинг барча даврлари инсонпарни камолот сари сафарбар қилиш, упарда руҳни тарбиялаш, юксак иродани шакллантириш билан боғлиқ ижтимоий вазибаларга жуда кенг ўрин берилганини кўриш мумкин. “Авесто” китобида, туркий халқлар тош битикларида, “Темур тузуклари”да, умуман, Марказий Осиёдан, буюк Турондан етишиб чиққан барча аллома-ю мутафаккирлар, жадид боболаримиз асарларида шахс тарбияси, инсон руҳияти ислоҳотида ахлоқ масалари дунёда тенги йўқ мукамал кон-



цепция ҳолатида шаклланиши кўриш мумкин. Миллий тарихимизнинг қайси даврини олиб қарамайлик, барчасида ахлоқимиз ўша давр хусусиятларини эътиборга олган ҳолда такомиллашиб, сайқалланиб борганини кўришимиз мумкин. Жумладан, жадид бобомиз Абдулла Авлоний шундай дейди: “Инсонларга энг муҳим, зиёда шараф, бапанд даража берувчи ахлоқ тарбиясидир. Маърифатпарвар аждодларимиз, хусусан, жадид боболаримизнинг бой маънавий меросини атрофлича ўрганиш ва уни ҳаётга тадбиқ этиш, Янги Ўзбекистонимизни барпо этиш йўлида мустаҳкам асос бўлиб хизмат қилади. Бинобарин, бугун ҳар биримиз ватанпарвар бўлиб, миллатпарвар бўлиб майдонга чиқишимиз даркор.

Шахснинг тўлиқ шаклланиши унинг ахлоқийлик даражаси билан боғлиқ. Ахлоқийлик эса ҳар бир инсоннинг ўзи ва жамият опдидаги бурч ва масъулиятга нисбатан муносабатида акс этади. Ахлоқийликнинг айрим кўринишлари инсоннинг ташқи ҳаракатларида намоён бўлса-да, айни пайтда, унинг том маънодаги ахлоқий сифатлари индивиднинг ички руҳиятида макон топади. Шунинг учун ҳам ахлоқийлик ҳар биримизнинг ички, ботиний ҳаётимизда яшайди. Ана шундай сифатлар асосида биз тарбия топамиз, ўзимизни ислоҳ қилишга эҳтиёж сезамиз.

Мазкур жараёнда ОАВ ҳам ўз фаоллигини кўрсатиши даркор. Тўртинчи ҳокимият давлат ҳокимияти эмас, балки давлат ва жамиятни, фуқароларни ўзаро боғлаб турувчи ҳокимиятга айланишга ҳаракат қилиши керак. Давлат ва жамиятни фуқаролар билан боғлаб туриш борасида тинимсиз ҳаракат қилиши позим. Жамиятда яшаётган инсонлар, миллатлар, халқлар ва бошқа турли ижтимоий гуруҳларнинг бирлигини мустаҳкамлаш ҳамда упарни мамлакат ва миллат тараққиёти мақсадларига йўналтиришга ўзининг ҳиссасини қўшиш асосий масалалар сирасига кириши жоиздир.

Мамлакатимизда маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш, бу борадаги чора-тадбирларнинг самардорлигини ошириш, аҳоли, айниқса, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтириш, мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш, ватанпарварлик ҳамда садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялашга апоҳида эътибор қаратилмоқда. Фуқароларнинг жамият ҳаётидаги иштирокини кучайтириш, ижтимоий-сиёсий фаолликларини ошириш, фуқаролик жамиятининг таянч устуни ва чинакам халқчил тузипмаси

бўлган маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлашда халқаро ҳамжамият билан ҳамкорликни кенгайтириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

“2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”даги етти устувор вазибаларга ижтимоий-маданий ривожланиш мақсади сингдирилган. Устувор вазибалар “инсон қадри учун” тамойилига, халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, инсон ҳуқуқ ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш, фаол фуқаролик жамиятини шакллантириш асосига қурилгани таъкидланади. Булар моҳиятан ижтимоий-маданий ҳарактерга эга тапаллар ва вазибалардир.

“Тараққиёт стратегияси”да инсон қадрини улуғлашга қаратилган дастлабки тадбирлар сифатида ижтимоий ҳимоя тилга олинади. Унда 2026 йилгача эҳтиёжманд аҳоли ижтимоий нафақа ва моддий ёрдам билан тўлиқ қамраб олиниши кераклиги юклатилган.

Ўзбек халқининг ватанпарварлиги – ўтмиш бўлмай, бугунги кунда ҳам яққол намоён бўлмоқда. Кексалар ва улуғларга ҳурмат, ёшларга меҳр-шафқат, бечора, ғариб мискинларга, етимларга хайр-саховат, ота-онанинг кўнглига қараб иш тутиш, дўстларга, қариндош-уруғларга яхшилик қилиш, бошга ташвиш тушганида ғамхўр, мададкор бўлиш, топганини яхшиликка сарфлаш ва бошқа жуда кўплаб миллий қадриятларимизда равшан кўринади. Миллий ғоя ва мафкурани ўз онгига сингдирган туйғу инсон учун табиийдир.

Тарихдан биламизки, аждодларимиз азалдан башариётнинг тафаккур хазинаси бўлмиш илм-фан, маданият, ватанпарварлик ва қадриятлар тараққиётига унутилмас ҳисса қўшиб келганлар. Демак, упарнинг бой ва ранг-баранг мероси миллий қадриятларимиз ҳамда замонавий илм-фан ютуқлари билан ижодий равишда юксалиб, келажак авлоднинг тафаккури ва дунёқарашини ғуруримиз ҳамда ватанпарварлик қадриятларини юксалтирган ҳолда бунёдкорлик фаолиятини ошириш – Янги Ўзбекистон давлатчилиги пойдеворини мустаҳкамлашнинг асосий гаровидир! Ҳар биримизнинг азиз Ватанимизга меҳримиз чексиз. Шу буюк меҳр бизни жонажон юртимизни асраб-авайлашга, аҳил яшашга, яратилаётган шароит ва имкониятлардан унумли фойдаланишга ундаб туради.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



## Ажойботлар олами

Ҳаётимизни, турмуш тарзимизни соатсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ҳар бир ҳаракатимизда, ишларимизни режалашда, асосийси, ўз вақтимиздан тўғри фойдаланишда қўл соатимизнинг хизмати муҳимдир.

Дарвоқе, қўл соатлари осма соатлар каби узоқ ўтмишга эга бўлмаса-да, аммо унинг ҳам ўзига хос тарихи мавжуд. Илк қўл соати билакузук тарзида ишланган. Уни парижлик Нитон исмли заргар Наполеон 1 нинг аёли Жозефинанинг буюртмаси асосида 1809 йили тайёрлаган. Билакузуқларнинг бирида соат, иккинчи-

сида календарь бўлган. Бу ихтирога ўша даврда унча эътибор қаратилмаган. Негаки, билакузукка ўрнатилган соат катта ва тақиб юришга ноқулай эди. 1850 йилда билакузукли соат-

## СОАТ ҲАҚИДА БИЛАСИЗМИ?

лар Францияда оммалаша бошлаган. Швед соатсозлари 1880 йили илк буюртмани олишган ва денгиз ҳарбийлари учун қўл соатлари ясашни бошлаган. 1907 йилдан Европада думалоқ шаклдаги қўл соатлари ишлаб чиқарилган. Бироқ улар муваффақият қозонмаган, негаки, чет элликларни соатларнинг механизми унча лол қолдиролмаган. 1910 йилда Англияда

ишлаб чиқарилган қўл соатлари бироз муваффақиятга эришган. Қўл соатларининг турли хил шакллари 1913 йилга келиб тайёрлана бошлаган. Биринчи жаҳон уруши қўл соатлари оммалашувида катта тўртки бўлган. Уруш давомида барча ҳарбийлар унга эҳтиёж сезиб, буюртма беришган. Соатсозлар қўл соатларини янада ривожлантириш, қулайлаштириш ва ихчамлаштириш йўллари йўлаб топишмаган. Сабоби, улар қўл соатларининг келажаги йўқ, одамлар барибир чўнтак соатларига эҳтиёж сезадилар, деган хулосага келишган. Лекин бу фикр ўз тасдиғини топмаган. Одамлар орасида секин-аста қўл соатлари тақиш урфга айланган.

Юлдуз чўғ бўлиб қизиган газлардан иборат катта шардир. Унинг таркибида гелий, азот, кислород, темир, никель ва рух каби кимёвий элементлар бор. Юлдузлар чанг ва газларнинг коинот бўйлаб ҳаракат қилаётган зич булутларидан ҳосил бўлади. Ўша булутнинг ичидаги беҳисоб газсимон зарралар бир ерга тўплана бориши натижасида юлдуз ҳосил бўлади. Айланаётган зарралар ўзига бошқаларини ҳам бирлаштириб олади, у аста-секин катталаша боради ва тортиш кучи ҳам ўсади. Зарралар катта газ шарини ташкил қилади.

## ЮЛДУЗЛАР ҚАНДАЙ ПАЙДО БЎЛГАН?

Шар катталашгани сайин зичлашади ва унинг ичидаги босим орта боради. Ниҳоят, босим шундай бир даражага етиб, газнинг температураси кўтарилди ва ўзидан ёруғлик чиқара бошлади. Шарнинг ичидаги босим ва температура жуда юқори даражага етгандан сўнг термоядро реакциялари юз бера бошлади. Газлар юлдузларга айланади.

Юлдуз ҳосил бўлиши учун катта миқдордаги модда бир жойга йиғилса, ўша юлдуз катта, ёрқин ва иссиқ бўлади. Агар юлдуз оз миқдордаги моддадан ҳосил бўлса, кичик, хира ва совуқ бўлади. Унинг ёнилғиси жуда секинлик билан ёна боради.

“Тақир, ҳосил бермайдиган ер” ва “яроқсиз ҳудуд” деган маъноларни англатадиган Тундра Арктиканинг ўрмонсиз зоналарига нисбатан ишлатилади. Тундрада яшаш шароити жуда ёмон. Дарахт йўқ, қиш фаслида ҳаво ниҳоятда совиб кетади, ёзда эса ўртача температура, бор-йўғи, 10 даражадан ошмайди. Йил бўйи ёмғир жуда оз ёғади, кучли шамол тинмайди.

## ТУНДРА ҚАЕРДА?

Шунга қарамасдан, тундра ҳам айрим ҳаёт шакллари бор. Масалан, Тундрадаги ўсимликларга тошларнинг сиртини қоплаб оладиган лишайниклар, тошларнинг ёриқларини тўлдирадиган ва шағалтошлар орасига ўсиб кирадиган йўсинлар ҳамда ўт-ўланларга ўхшаш ўсимликлар ва айрим буталар киради. У ерда яшайдиган ҳайвонлар ҳам унчалик кўп эмас. Тундрада лемминглар, хўкизқўйлар ва оқ айиқлар яшайди. Кўпгина қушлар жўжаларини тундрада очиб чиқади. Ёз ойларида куннинг узоқлиги қушларга озуқа топиш ва тўда-тўда полапонларини боқиш имконини беради. Тундрада ўрдақлар, ғозлар ва лойхўрақларга ўхшаш қушлар кўп.

Тундрадаги тупроқ қатлами жуда юпқа. У абадий музликлар устидадир. Ёз ойларида музликнинг юқори қатлами эриши билан ўсимликларнинг томирлари ва бактериялар жонланиб қолади.



Дунёдаги илк телескопни голландиялик оптика мутахассиси Данс Липпертей ясаган эди. Аммо унга қадар турли олимлар, XIII асрдан бошлаб, катталаштириб берувчи линзалар ёрдамида тажрибалар қилиб кўришган. Ўта қашшоқ кун кечирган Липпертейнинг кашфиёти ҳеч кимга маълум бўлмай қолиб кетган. Ордан бир йил ўтиб ўз телескопини ясаган итальян олими Галилео

## РАДИОТЕЛЕСКОП

Галилей унинг ихтирочиси деган ном олган. Галилей телескоплари орасидаги энг кучлиси нарсаларни 33 марта катталаштириш қувватига эга бўлиб, осмоннинг фақат кичик бўлагини кузатиш имконини берарди.

Шунга қарамасдан, Галилей буюк кашфиёт яратган. У биринчи бўлиб Сатурн – Зуҳалнинг ҳалқаларини, Юпитер – Муштарийнинг тўртта йўлдошини топган Ойдаги тоғлар ва кратерларни кўрган. Электроника асри келиши билан бундай асбобнинг мутлақо янги тури – радиотелескоп ихтиро қилинди. Илк радиотелескоп Иккинчи Жаҳон уруши тугаганидан кўп ўтмай яратилган. Телескопнинг катта ликочага

ўхшайдиган, диаметри бир неча метрлик ойнаси радиотўлқинларни тутди. Унинг оддий телескопларга нисбатан беқиёс афзаллиги шундаки, жуда заиф ёруғлик чиқарадиган ёки умуман чиқармайдиган юлдузлар ва галактикаларни ҳам излаб топиш қувватига эга. У бепоён фазони қоплаб ётган газ тўпламлари ёки космик чанглари ҳам ёриб ўта олади. Шунингдек, ундан ҳар қандай об-ҳаво шароитида фойдаланиш мумкин, чунки радиотўлқинлар Ер атмосферасидаги булутларни осонлик билан ёриб ўта олади. Оддий телескопдан фарқли ўлароқ, радиотелескоп ҳар қандай об-ҳаво шароитида ҳам ишлай олади ва уни қитъанинг исталган нуқтасига ўрнатиш мумкин. Бунинг учун тепалик бўлиши шарт эмас.

Америкалик бир олим диаметри 300 метрлик энг катта радиотелескоплардан бирини Пуэрто-Рикодаги сўнган вулқон кратерига ўрнатган. Яна айлана-секин бўйлаб ҳаракатсиз элементлар жойлаштирилган, диаметри 600 метрлик ўзига хос радиотелескоп 1976 йили Шимолий Кавказда ўрнатилган.

**Анвар ҚОБИЛОВ**  
тайёрлади.



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллода**  
**вазирлар**  
**вазирлиги**

**Бош муҳаррир**  
**Азамат СУЙОНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

**Навбатчи:**  
**А.ҚОБИЛОВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқлиниши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Юнусобод тумани,  
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.  
**Тел.:** (71) 212-69-56  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташқилотлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 9850 нуска